O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI VOBKENT TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko’chasi 55-uy, tel: (65) 33-21-550, vobkent.t@exat.uz

2022 - yil 16 - dekabr 590-2-33-Q/22 Vobkent tuman hokimligi

Vobkent tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi tomonidan tuman hududidan o‘tgan umumiy foydalanishdagi va ichki xo‘jalik yo‘llarida 2022-yil dekabr oyi davomida o‘rnatiladigan yangi intensiv nur qaytaruvchi yo‘l belgilari joylashuv o‘rni to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi hamda "Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 377-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan "Yo‘l harakati qoidalari" ijrosi yuzasidan yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida yo‘l belgilarini o‘rnatishni tashkil etish maqsadida Vobkent tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2022-yil 1-noyabrdagi 256-sonli xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Vobkent tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2022-yil 1-noyabrdagi 256-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Vobkent tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi tomonidan tuman hududidan o‘tgan umumiy foydalanishdagi va ichki xo‘jalik yo‘llarida 2022-yil dekabr oyi davomida o‘rnatiladigan yangi intensiv nur qaytaruvchi yo‘l belgilari joylashuv o‘rni ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (N.Qurbonov), tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi (S.Boltayev) mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda tuman hududidan o‘tgan umumiy foydalanishdagi va ichki xo‘jalik yo‘llarida o‘rnatiladigan yangi intensiv nur qaytaruvchi yo‘l belgilari joylashuv o‘rnini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tanlash choralarini ko‘rsinlar.

4. Mazkur qaror mohiyatini aholiga yetkazish maqsadida tuman hokimligi Veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilsin.

5. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qurilish,

kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari R.Azamatov va tuman IIB boshlig‘i O‘.Soyibovlar zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **F.Umarov**

Vobkent tuman hokimining
2022 yil 16 dekabrdagi
590-2-33-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Vobkent tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi tomonidan tuman hududidan o‘tgan umumiy foydalanishdagi va ichki xo‘jalik yo‘llarida 2022-yil dekabr oyi davomida o‘rnatiladigan yangi yuqori intensiv nur qaytarguvchi yo‘l belgilari joylashuv o`rni

T/r	Avtomobil yo‘li nomi	Manzili (MFY nomi va km. qismi/ichki yo‘l)	Yo‘l belgi nomi	Soni (dona)
1	4R-66 Avtomobil yo‘li	Beshrabot MFY (23 KM yo‘lning o‘ng va chap tomoni)	1.31 “sun’iy notekislik”	2
2	4K-163 Avtomobil yo‘li	Shakarkent MFY (21 KM yo‘lning o‘ng va chap tomoni)	1.31 “sun’iy notekislik”	2